

## FITRATNING MA'RIFIY-AXLOQIY VA TARBIYAVIY QARASHLARI

Xudayberdiyeva Mohichehra Alisher qizi

Buxoro davlat universiteti Tarix-Yuridik fakulteti

Yurisprudensiya yo'nalishi 3-kurs 5/2 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14571224>

**Annotatsiya.** Abdurauf Fitrat Turkiston jadidchilgining rivojida muhim rol o'ynagan hamda o'z asarlari bilan ushbu harakat g'oyalarining yoyilishiga juda katta hissa qo'shgani, Fitratning diniy islohotchilik yo'nalishidagi faoliyati hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning insonlar komilligiga ta'siri xususida so'z yuritilgan. Insoniyat tarixida shunday daho san'atkorlar bo'lganki, ular o'z hayoti, ijodi, fikr-u zakovatini, xalqning bugungi turmushini yaxshilashga, ertangi kunini charag'on qilishga bag'ishlaganlar. Darhaqiqat, bir qancha millatparvar adiblar qatag'on tufayli ma'naviyatimiz tarixidan yulib tashlanganiga qaramay, ular merosini o'rganish, asarlarida ko'tarilgan ma'naviy-axloqiy muammolarini tadqiq etish bugungi istiqlol sharoitida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, bu ulug' adiblar ijodining mohiyati jamiyat va millatni yuksaltirishga xizmat qilgan. Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Avloniy, Mahbudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi fidoiy adiblar qatorida, ehtimol, ularning oldindi safida Abdurauf Fitrat ham o'z elining aqli va qalb ko'ziga aylangan.

**Kalit so'zlar:** Mijmar, Hurriyat, Chig'atoy adabiyoti, Mahmudxo'ja Behbudiy.

### EDUCATIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL VIEWS OF FITRAT

**Abstract.** In the history of mankind, there have been such brilliant artists who devoted their lives, creativity, thought and intelligence to improving the current life of the people and to creating a bright future. Indeed, despite the fact that a number of nationalist writers were uprooted from the history of our spiritual heritage due to repression, studying their heritage and examining the spiritual and moral problems raised in their works has not lost its relevance even in today's conditions of independence. After all, the essence of the work of these great writers served to elevate society and the nation. Along with such selfless writers as Is'hoqhon Ibrat, Abdulla Avloniy, Mahbudkhoj Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cholpon, Usman Nasir, perhaps in their forefront, Abdurauf Fitrat also became the mind and heart of his country.

**Keywords:** Mijmar, Hurriyat, Chigatay literature, Mahmudkhoj Behbudiy.

### ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ, ЭТИЧЕСКИЕ И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ФИТРАТ

**Аннотация.** В истории человечества были такие гениальные художники, которые посвятили свою жизнь, творчество, мысль и изобретательность улучшению жизни людей сегодня и просветлению их завтра. Фактически, несмотря на то, что ряд писателей-националистов были выведены из истории спиритизма в результате репрессий, изучение

их наследия и исследование духовно-нравственных проблем, поднятых в их произведениях, не потеряло своей актуальности даже в сегодняшних условиях независимости. Ведь суть творчества этих великих писателей служила возвышению общества и нации. Абдурауф Фитрат стал умом и душой своего народа среди таких преданных писателей, как Исхак Хан Ибрат, Абдулла Авлони, Махбудходжса Бехбууди, Абдулла Кадири, Абдулхамид Чолпон, Усман Насир.

**Ключевые слова:** Миджмар, Хуррият, Чигатайская литература, Махмудходжес Бехбууди.

**KIRISH:** Abdurauf Fitrat 1886-yili islomiy madaniyatning markazlaridan biri Buxoroda tavallud topgan. Otasi Abdurahimboy zamonasining ma'rifatli boylaridan, onasi Bibijon esa o'qimishli, o'z bolasi taqdirida muhim rol o'ynagan ayollardan bo'lgan. Darvoqe, Fitrat yuqorida tilga olingan anketada onasining ismini Bibijon sifatida tilga olgan. Adibning boshqa qarindosh - avlodlari ham uning to'la ismi Mustafbibi bo'lganini unutib, Bibijon ismi bilan yodlab yurishadi.

Abdurahimboy ko'proq savdo ishlari bilan band bo'lgani sababli yosh abduraufning tarbiyasi ziyrak va zukko onasi Mustafbibining qo'lida bo'lgan. Abdurauf dastlab eski mакtabda, so'ngra Buxorodagi mashhur "Mir Arab" madrasasida tahsil ko'r gan bo'lsada, ilmga chanqoqligi, "kitob shaydosi" bo'lganligi bois, mustaqil mutolaa orqasida aksar madrasadoshlaridan ancha ilg'orlab ketgan edi.

Fitrat 1909-1913 yillarda Turkiyada o'qib ijod etgan. Turkiyada ijod etgan asarlari. U Turkiyada "Munozara", "Sayha", "Yurt qayg'usi" nomli kitoblarini chop etgan.

Fitrat 1912-yil 11-martda Buxorolik yoshlar Kogondagi maktab egasi Liviy(yaxudiy)ning moddiy yordamida "Buxoroi sharif", o'sha yilning 14-iyulida esa turkiy tilda "Turon" gazetasini nashr etishga muvaffaq bo'ldilar.

Buxoro amirining 1917-yil 7-aprel farmoni (Manifesti)dan keyin Fitrat Samarqandga ko'chib borib, "Hurriyat" gazetasiga muharrirlik qiladi. Gazeta moddiy jihatdan og'ir ahvolda qolgach, muharrirlik lavozimini Muhammadqul O'rino boy o'g'liga topshiradi.

Fitrat hayoti va faoliyatining Toshkent davrida ro'y bergen eng muhim voqeasi "Chig'atoy gurungi"ning O'zbekistondagi birinchi adabiy uyushma sifatida tuzilishidir. O'tgan asrning 20-yillarida yaratilgan adabiyotshunoslik va tilshunoslikka oid asarlarida "Chig'atoy adabiyoti", "Chig'atoy tili" atamalari ko'p uchraydi. Fitrat "Chig'atoy adabiyoti" degan maqolasida O'rta Osiyodagi turkiy tillarida yaratilgan adabiyotning "Chig'atoy adabiyoti"- deb atalishi Chingizxonning o'g'li Chig'atoy nomi bilan bog'liqligini e'tirof etgan.

Fitratning bu uyushmani tuzishdan maqsadi, birinchidan, tarqoq holda yashayotgan ilm va ijod ahlini birlashtirish, ikkinchidan, shoir va yozuvchilarning yangi asarlarini tinglab, muhokama

qilish, uchinchisidan, davrning adabiy- ma'rifiy hayotida faol ijod etish, to'rtinchisidan, musiqa va teatr ishlarini jonlantirish, beshinchidan, lug'at tarkibi va grammatik tuzilishi murakkab bo'lgan o'zbek adabiy tilini isloh qilish, arab va fors so'zlarini qadimiy turkiy so'zlar bilan almashtirish, rus tilidan kirib kelishi mumkin bo'lgan so'zlarning o'zbekcha muqobilini ishlash, xullas, yangi, zamonaviy o'zbek adabiy tilini yaratish edi.

Abdurauf Fitrat bo'lib, bu so'z tug'ma iste'dod, insonga alloh bergan yaratuvchilik qobiliyati ma'nolarini anglatadi. Zamondoshlarining guvohlik berishicha, talabalik yillari **Mijmar** (Cho'g'don, xushbo'y narsalar solib tutatiladigan idish ma'nosida) taxallusi bilan ham g'azallar bitgan<sup>1</sup>.

**1909-yil "Jamayti xayriya" ning ko'magi bilan Istanbulga o'qishga borgan.** Fitratning singlisi Mahbuba Rahim qizining eslashicha, uning ukasi Abdurahnon (o'sha paytda Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo'lib, ishlagan) akasiga moddiy jihatdan yordam berib turgan. Fitrat Istanbul universitetida o'qish bilan birga u yerdagi "Doru-l-voizin" (Voizlar- ma'ruza qiluvchilar) madrasasida ham dars bergan. Bu madrasa Buxoro va Turkistondan o'qishga borgan yoshlarni universitet ta'limiga tayyorlash bilan ham mashg'ul bo'lgan. B.Qosimov ishlarida G'ozi Olim Yunusov bilan Hamza ham bir muddat Istanbuldag "Doru-l- voizin" madrasasida o'qiganligi haqida xabar beriladi<sup>2</sup>.

**ASOSIY QISM:** Fitrat deyarli 17 yoshidan boshlab avvaliga diniy, so'ngra badiiy ijod va ilmiy tadqiqot ishi bilan jiddiy shug'ullanadi.

Barchamizga ma'lumki, tarbiya-aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tamonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy- axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgantizimli jarayondir. Axloq esa ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. "Axloq( arab, xulqning ko'pligi, xulq-atvor)- ma'naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma'naviyat sihasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turushi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro munosabat, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan barqaror, muayyan me'yor va qoidalalar yig'indisi. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuini, zamonaviy tilda aysak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar.

Kishi qalbida haromdan hazar, noplaklikka,adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak. shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi, vatani, xalq uchun jonini fido etishga ham o'zini ayamaydi.

Axloqiy tarbiya kishi axloqni kamolga yetkazish, odamning fe'li va harakatiga yaxshi fazilatlarni singdirish demakdir. Hayot binosini qurishda va uning taraqqiyotida avlod tarbiyasining rolini ta'kidlar ekan, Fitrat uch narsa: tansihatlik, sog'lom fikr va yaxshi axloq muhimligini aytib o'tadi.

So'ngra esa mana shu tarbiya uchun zaruz bo'lgan turli xil vazifalarni jamiyat a'zolari oldiga qo'yish bilan o'z risola tadqiqotini yakunlaydi. Tarixchi, olimlarning fikriga qaraganda, odamlar xalq bo'lishlaridan oldin jamoa bo'lib yashash zarur ekanligini bilmaganlar. Shu bois ular tabiiy mushkutotlar ostida azob chekib, hayvonlar hujumlaridan halok bo'lganlar. Vaqt o'tishi bilan odamlar jamoa bo'lib yashash lozimligini tushunadilar. Ularning birinchi jamoalari "oila" yani "ahli bayt" bo'lgan. Ahli bay! jamoalari asta-sekin rivojlanib qavm va qabila jam orasiga aylangan.

XX asr o'zbek ma'rifikatparvarlik harakatining yorqin namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat xalqni ma'rifikatli qilish, axloqiy barkamollikka yetkazish orqali millatni yuksaltirishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan. Fitratning pedagogik va ma'rifiy qarashlari uning adabiy asarlari, ilmiy risolalari va ijtimoiy-siyosiy faoliyatida yaqqol namoyon bo'lgan. Ushbu maqolada Fitratning ma'rifiy-axloqiy qarashlari tahlil qilinadi va ular bugungi kun uchun ahamiyati yoritiladi.

Fitrat o'z risolalarida ma'rifikat va axloqni ajralmas tushunchalar sifatida ko'rgan. Uning fikricha, insonning bilim olish jarayoni faqat akademik bilimlarni egallashdan iborat emas, balki axloqiy qadriyatlarni shakllantirishni ham o'z ichiga olishi kerak. Fitratning "Rahbari najot" asarida ma'rifikat va axloqning jamiyatni barqarorlashtirishdagi roli keng yoritilgan.

Fitrat o'z asarlarida xalqni jaholatdan chiqarish uchun ma'rifikatparvarlikni targ'ib qilgan. U "jaholat zulmatidan faqat bilim nuri olib chiqadi" degan qarashni ilgari surgan. Fitrat ta'limning asosiy vazifasi yosh avlodni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularga milliy g'urur va axloqiy poklikni singdirish ekanligini ta'kidlagan.

Fitrat axloqiy tarbiyaning boshlang'ich nuqtasi sifatida oilani ko'rsatgan. Uning "Oila" risolasida jamiyatda axloqiy me'yirlarni saqlash va mustahkamlashda oilaning roli birinchi o'rinda ekani ta'kidlangan. Fitrat oilani "axloq va ma'rifikat maktabi" deb atagan.

Bugungi globallashuv jarayonida milliy ma'naviyatni saqlab qolish masalasi dolzarb hisoblanadi. Fitratning ma'rifiy va axloqiy qarashlari milliy tarbiya tizimining tamal toshi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Uning ilmiy va amaliy merosi yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash uchun muhim nazariy asosdir.

Abdurauf Fitratning ma'rifiy-axloqiy qarashlari uning ijodi va faoliyatida chuqr aks etgan bo'lib, bu g'oyalar milliy tiklanish, jamiyat ma'naviyati va yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Fitratning ilmiy merosi nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ma'rifikat va axloqning uyg'unligi tamoyiliga asoslangan holda jamiyatni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa** Aslida dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lмаган бирорта қавм ўйғ. Harbirmillatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq.

Tinchlikva totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchliintizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agardabir mamlakatning aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarini zaiflashtiribyuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubhaostidaqoladi. Hozirgi Yevropa olimlari ham o'z xalqlari intizomi va oilalarining rohati uchunharakatqilib yuzlab kitoblarni yozib nashr qilmoqdalar. Ishonchim komilki, oila saodati vabaxtiuchun qabul qilingan eng maqbul qonun islomiy qonunlar bo'ladi. Lekin olamda engbadbaxtoilalar ham biz muslimonlarning ichimizda bo'ladi, chunki biz ilohiy qonunlarningbirontasiga rioya qilmay qoyganmiz. Baxtsizligimizning sababi oiladorlik xususidagi har bir harakatimiz, sarob orzularimiz va xato fikrlarimizning natijasi bo'lib, aksariyati muqaddas Qur'oni karim hukmlariga ziddir. Shuning uchun zulm va tajovuz ko'rмаган oilalarbizdanihoyatda kam ko'rindi. Hozirda taraqqiy etayotgan islomiy o'lkalarda turk, arab, forsoliimlari o'z millatlarining kimligini anglab yetib, oila nizomi va tinchligi haqida anchakitobyozdilar. Bu kitoblarda ular diniy va dunyoviy hukmlarga tayanib oilaviy masalalarga izoh bergenlar. Xulosa qilib aytganda, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy vazifa yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir ijtimoiy vazifa ekanligi barchamizga ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobjiy namunasi solih va soliha farzandlarining kamolga yetishi uchun garovdir.

Bu maqolalar Fitratning dunyoqarashi, faoliyat qirralarini to'laqonli tushunishga xizmat qiladi. Fitrat ona Turkistonni ozod ko'rishni istaydi, buning uchun har bir turkistonlik oila, axloq, tarbiya va erk o'chog'i bo'lishi lozimligini anglaydi. Mutafakkir yangi oilani ana shu tartibda qurishga da'vat etadi. Har jihatdan sog'lom bo'lgan oila yetishtirgan farzandlargina millatni yuksakka ko'tara olishini, uni istibdoddan qutqarishini aytadi: "Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jism-u tan,aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib chirib ketgan. Shunday quollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor...", -deb ta'kidladi u.Barchamizga ma'lumki, tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayondir. Axloq esa ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. "Axloq (arab. Xulqning ko'pligi; lot. Moralis – xulq-atvor) –ma'naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma'naviyat sohasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turushi, ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi o'zaro munosabat, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turadigan barqaror, muayyan me'yor va qoidalar yig'indisi.

Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoliklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak.

Shunday odamgin lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo‘ladi, vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o‘zini ayamaydi. Axloq talablari kishilarning fe’l-atvori va faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Axloq talablari kishilarning fa’l-atvori va faoliyatida o‘z ifosadini topadi. Axloq hodisa sifatida ijtimoiy faoliyatni tartibga solishning boshqa shakllaridan o‘z talablarining asoslanishi va amalga oshirilishi bilan farq qiladi. Axloq me’yorlari hamma uchun barobardir, lekin ular hech kimning buyrug‘I bilan joriy etilmagan burch, majburiyat tarzida namoyon bo‘ladi. Davlatimiz kelajagi ham, rivojlangan mamlakatlar orasida tutgan mavqeい va salohiyati ham, dunyoqarashi, bilimi, aql- zakovati, vatan, jamiyat va oila oldidagi burchi va mas’uliyatini to‘g‘ri anglashi, bugungi avlodga Abdurauf Fitrat ushbu asarida har bir yangi oila uchun qo‘llanma vazifasini o‘tashi bog‘liqdir. Zero bilim va kasb-hunarga qiziqish, ota-onaga surmat, do‘singa sadoqat, mehr-shafqat, halollik va poklik kabi axloqiy fazilatlar oilada shakllanadi va sayqal topadi. Abdurauf Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asari oilaning paydo bo‘lishi, uning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati, oilada amal qilinadigan ichki tartib va qoidalarga bag‘ishlangan. Ayniqsa, asarning “Uylanish yoki uylanmaslik xususida”, “Qalin (puli) va to‘y qanday bo‘lishi lozimligi haqida”, “Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida”, “Oilaning Maishati va idorasi” qismlarida bu masalalar haqida fikr yuritib o‘tgan. Mumkin bo‘lgan masalalarni yoritadi. U vatanparvarlik va millatparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, kitobning birinchi qismiga, ayniqsa katta e‘tiborni qaratadi. Undan nafaqat o‘sha davr balki hozirgi kunda ham yangi oila qurmoqchi bo‘lgan yoshlar kichik hajmdagi axloqiy-maishiy, gigienik-salomatlik qomusi sifatida foydalanishi mumkin. Bundan tashqari, asarda oilaning moddiy tomonlari, tashkil topgandan boshlab, buzilishigacha bo‘lgan holatlarning axloqiy asoslari to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tadi. Bu jihatlarni o‘sha davr nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak juda ijobiy jihat hisoblanadi. Chunki, bu davrda Turkistonda hali meditsina unchalik rivojlanmagan, kishilarning turmush madaniyati ham u qadar yuqori emas edi.

Fitrat ko‘plab xorijiy davlatlarda bo‘lganligi sababli, u yerdagi ijobiy, o‘rganish zarur bo‘lgan, turmush tarziga oid juda ko‘p tajriba orttirgan edi. Er-xotin va farzandlardan iborat, bir shaxs boshchiligidan, birga yashovchilar, Fitratning fikricha, oilani tashkil etadi. Asarda har bir oila manfaatini himoya qilish maqsadida turli qonunlar ishlab chiqilgani, ular «manzil tadbir» (ro‘zg‘or tebratish tadbiri) deb atalgani ta’kidlanadi. Shu ma’noda, muayyan mamlakat aholisi axloqsizlik oqibatida oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l bersa, shu millatning saodati ham, hayoti ham shubha ostida qoladi. Oilada ayollarga munosabat haqida to‘xtalib, Fitrat quyidagi rivoyatni ham keltiradi: “Oysha (r.a.) rivoyat qiladilar. Nabiy alayhissalom dedilar: “Eng komil mo‘minlar xushhulq va oilasi bilan lutf ila munosabat qiladiganlardir. O‘z xotinlariga mardikarim yaxshilik qiladi va mardilaim yomonlik”. Fitrat nazarida mamlakat taqdiri va istiqboli barkamol farzandlarni tarbiyalash bilangina belgilanmaydi.

Mazkur asarda millatning ma'rifatparvarligi ayollarga bo'lgan munosabatda ham yorqin namoyon bo'lishi qayta-qayta ta'kidlangan. Kitobning ikkinchi qismi va muhim qismlaridan yana biri farzand tarbiyasiga bag'ishlangan.

Fitrat ham tarbiyani an'anaviy yo'nalishda talqin etadi: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uyg'unligida haqiqiy inson kamol topadi, deb hisoblaydi.

Kitobning bu qismida Fitrat, ma'lum ma'noda, o'ziga xos axloqiy tarbiya nazariyasini taqdim qiladi. U ixtiyor erkinligi muammosini mayl Tushunchasi orqali o'rtaga tashlaydi: baxt mayli, faoliyat mayli, aloqa mayli, boshqalarga mehr-muhabbat mayli va h.k. Bularning hammasida ham insonni jamiyat a'zosi sifatida, ijtimoiy mavjudot sifatida olib qaraydi. Shuningdek, u izzat-nafs, ayniqsa, iroda masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. "Iroda va ixtiyor" sarlavhasi ostidagi kichik bobda Fitrat farzandni irodali qilib tarbiyalashga da'vat etadi, iroda tarbiyasining to'rt banddan iborat qoida-bosqichlarini taklif etadi. Bolani irodali qilib tarbiyalashda ota-onaning zo'ri emas, balki bolaga beriladigan muayyan erkinlik muhim ekanini ta'kidlaydi. Fitrat qarashlarida islomiy oila mohiyatini anglash bo'lgani uchun oilada Millatning qadri va sha'nini belgilovchi harakatlar, avvalo, er va xotinning iffat va diyonati bilan bog'liq ekanini hayotiy misollar bilan tushuntiradi. Erxotinlikning birinchi sharti va oxir-oqibati farzand ekan, bu maqsadga erishish vositasi va sababi visoldir. Visol ishtiyoqi yoshlarda ertaroq tug'ilishiga qaram asrdan «hakimlar erkaklarga 23 yoshdan oldin uylanmaslikni va qizlarga 18 yoshdan oldin turmushga chiqmaslikni maslahat beradilar».

## REFERENCES

- Fitrat. A.** Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari va havaslilari uchun qo'llanma/ Nashrga tayyorlovchi H. Boltaboev.-Toshkent:O'qituvchi,1995.
- Fitrat. A.** Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari va havaslilari uchun qo'llanma. - Toshkent, 1926.
- Fitrat. A.** Adabiyot meros va chig'atoy adabiyoti (O. Hoshimov bilan hammualliflikda)// Qizil O'zbekiston. 1929 yil 16,17 iyul
- Fitrat. A.** Adabiyot qoidalari [kitobdan ayrim parchalar] nashrga tayyorlovchi Sh. Turdiyev// fan va turmush.1989.

<sup>1</sup>Fitrat. Fors shoiri Umar Xayyom. Tanlangan asarlar.2-jild. -T.: Ma'naviyat. 2000.-B.141

<sup>2</sup>Ahmad taroziy. Funun ul-balog'a-T.: Xazina,1996.

<sup>3</sup>Fitrat. Adabiyot qoidalari. Tanlangan asarlar. 4-jild. (Nashrga tayyorl. H.Boltaboyev)-T.:Ma'naviyat,2006.-B.80.

<sup>4</sup>Fitrat.Fors shoiri Umar Xayyom. Tanlangan asarlar.2-jild.-T.: Ma'naviyat.2000.-B.135

<sup>5</sup> Fitrat. Aruz haqida. Tanlangan asarlar.5-jild (Nashrga tayyorl. H.Boltaboyev.)-T.: Ma'naviyat, 2010.-B.259.

<sup>6</sup>Fitrat. Adabiyot qoidalari.Tanlangan asarlar.4-jild. (Nashrga tayyorl. H. Boltaboyev.)-T.: Ma'naviyat, 2006.-B.39